



NOFAOL SO‘ZLAR O‘QUV LUG‘ATI MAQOLASI UCHUN ILLYUSTRATIV MISOLLAR TANLASH TAMOYILLARI

Kamola Saidova

saidovakamola14@gmail.com

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Uzbekistan

Annotasiya. *Maqolada nafaol so‘zlar o‘quv lug‘ati uchun illyustrativ misollar tanlashning nazariy va amaliy tamoyillari tadqiq etiladi. Muallif lug‘at maqolasining tarkibiy qismlarini tahlil qilar ekan, illyustrativ misollarning so‘z semantikasini ochib berishdagi xizmati va ularning turlari (iqtibos va namuna keltirish)ga alohida to‘xtaladi.*

Kalit so‘zlar: *illyustrativ misol, bosh so‘z, o‘quv lug‘atchiligi, iqtibos keltirish, namuna keltirish*

Odatda, izohli lug‘at maqolasining tarkibi: 1) bosh so‘z; 2) so‘zning etimologiyasi haqida ma‘lumot; 3) so‘zning grammatik ma‘nosi haqida ma‘lumot; 4) so‘zning uslubiy hamda semantik ma‘nolariga doir ma‘lumot; 5) izohlanuvchi birliklar izohi (semantizatsiyasi); 6) izohlanuvchi birlikdan keyin beriladigan illyustrativ misol kabi qismlardan tashkil topgan bo‘ladi. Ilyustrativ misol so‘z izohidan keyin berilgani bilan oldingi qismlarning belgilangan talab asosida kitilganini, grammatik va uslubiy belgilarning to‘g‘riligini, so‘z ma‘nolarining aniq tartiblab, izohlanganini tasdiqlash maqsadida kiritiladi. Shu sabab illyustrativ misollar lug‘at maqolasining tarkibiy tuzilishida muhim o‘rin tutib, lingvistik qoidalar, semantik struktura va uslubiy xususiyatlarning real misollar orqali tasdiqlanishiga xizmat qiladi.

Lug‘at illyustratsiyasi – so‘zning semantik va grammatik xususiyatiga qo‘shimcha tavsif beradigan uning qo‘llanish doirasini aniqlashtiradigan vizial vosita.[2,60] Bundan illyustrativ misollarning so‘z ma‘nosini izohlash, tushuntirish uchun qo‘shimcha resursligi ko‘rinadi.

Shunday qilib, lug‘atdagi illyustrativ misol ikki asosiy vazifani bajaradi:

1. **So‘zning mavjudligini isbotlash** – tarixiy va akademik lug‘atdagi illyustrativ misol so‘z yoki iboraning real til amaliyotida mavjudligini ko‘rsatib beradi.

2. **So‘zning kontekstdagi ma‘nosini tushuntirish** – foydalanuvchini ma‘lum kommunikativ vaziyat bilan bog‘laydi va so‘zning semantik, morfologik, sintaktik, stilistik hamda madaniy qirralariga doir qo‘shimcha ma‘lumot berish orqali til o‘rganishni qulaylashtiradi. Shu bois illyustrativ misollar lug‘at maqolalarida ilmiy-tasviriy dalil sifatida ham, pedagogik vosita sifatida ham ahamiyatga ega.

Lug‘atchilikda illyustrativ misollar bilan bog‘liq masalalar nazariy tomondan yetarlicha o‘rganilmagani bu sohaga doir ilmiy- amaliy tadqiqotlar olib borishni taqazo qiladi. Shunga qaramay, bu sohaga doir nazariy asoslar mavjud. L.V.Kopetskiy slavyan tillari bo‘yicha tarjima lug‘atlari haqida maqolasida ikki asosiy illyustratsiya usulini ko‘rsatadi:

1. Iqtibos keltirish (цитация): asosan katta akademik lug'atlar uchun xos bo'lib, iqtiboslar asosan, ilmiy, badiiy, publitsistik asarlardan olinadi va so'zni hujjatlashtirish, aniq kontekstda qo'llanishini ko'rsatish maqsadida lug'atda beriladi;

2. Namuna keltirish (экземплификация): so'z birikmalari yoki qisqa gaplar shaklida lug'atshunos tomonidan yaratilib, so'zning tabiiy kontekstda ishlatilishini ko'rsatish maqsadida lug'atda beriladi.[3,89] Demak, iqtibos keltirish so'zning mavjud manbalardagi ishlatilishini ko'rsatsa, namuna keltirish esa so'zning tipik kontekstda qanday ishlatilishini ko'rsatadi.

O'quv lug'atida illyustrativ misolning berilishiga doir turli qarashlar mavjud:

1. A.S.Hornby va uning izdoshlari uchun illyustarativ misol lug'at maqolasiga kiritilishi shart bo'lgan asosiy qismdan biri bo'lgan. Buning asosida o'rganuvchiga so'zning odatiy matn tarkibida qanday ishlatilishini ko'rsatish maqsadi yotadi. Shu sababli, haqiqiy (real) misollar emas, balki lug'atshunos tomonidan maxsus yaratilgan misollar afzal ko'rilgan. Ularning fikricha, diqqat bilan tuzilgan illyustrativ misol grammatik, leksik va sintaktik jihatlarni aniq tushuntira olgan;

2. J.Sinclair va uning tarafdorlari uchun illyustrativ misollarni lug'atshunoslar to'qib chiqarishi emas, balki real nutqdan olinishi lozim. Sun'iy illyustrativ misol ko'pincha grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa ham, real til muhitini aks ettirmasligi va ko'pchilik o'qituvchilar va til o'rganuvchilar haqiqiy misollarga asoslangan lug'atni afzal ko'rishini ta'kidlaydi. [1,458] Umuman olganda, talablarga javob beradigan illyustrativ misol – korpus (matn)dan olingan iqtibos. Ammo bunday illyustrativ misollar juda kam uchraydi va ko'pgina jumlar tushunarsiz yoki juda uzun bo'lishi mumkin.

Amaliyotda matndan bosh so'z (headword)ning odatiy kontekstida qo'llangan qisqa ibora tanlab olinadi (odatda 4-6 so'z)va biroz o'zgartirilib, yanada tushunarli va aniqroq shaklga keltiriladi. [1,459] Natijada lug'atda tabiiy, tushunarli va foydali illyustarativ misol paydo bo'ladi. Demak, o'quv lug'ati uchun illyustrativ misollar:

- **me'yoriylik va tabiiylik** (til me'yorlariga mos, real kontekstda ishlatiladigan);
- **izohli va tushuntiruvchi** (ma'no va qo'llanilishini aniq ko'rsatadigan);
- **aniqlik va qulaylik** (oson tushuniladigan, ortiqcha murakkabliksiz) **tamoyillari** asosida berilishi kerak.

Illyustarativ misolning tabiati lug'at turiga hamda foydalanuvchining ehtiyojiga ko'ra farq qiladi. Jumladan, nafaol so'zlar o'quv lug'ati so'zligida illyustrativ misol tanlashning ham lug'at qamrovi va foydalanuvchi ehtiyoji nuqtayi nazaridan o'zi xos tamoyillari mavjud. Nafaol so'zlar o'quv lug'ati – zamonaviy tilda kam qo'llaniladigan tarixiy, dialektal, poetik va ilmiy matnlarda uchraydigan so'zlarni tushuntirish uchun mo'ljallangan maxsus lug'at. Shu sababdan, lug'atda har bir sohaga tegishli so'zning o'ziga xos konteksti borligi va shuning bilan birga o'quv lug'ati sifatida foydalanuvchi ehtiyojini ham hisobga olinishini nazarda tutish lozim. Shu talablar asosida quyidagi **tamoyillarni** ko'rib chiqish mumkin:

- **me'yoriylik va tabiiylik**: illyustrativ misol semantik va sintaktik jihatdan to'g'ri ifodalanishi uchun so'zning qo'llanilish sohasiga mos matndan yoki tabiiy kontekstdan.

olingan bo'lishi kerak. Masalan, badiiy-poetik nutqda qo'llanadigan "shikasta" so'zini izohiga qanday illyustrativ misoldan foydalanish mumkin.

Dastlab O'TILdagi semantizatsiyasiga e'tibor bersak:

SHIKASTA [f. شکسته – singan, parchalangan; puturdan ketgan; g'amli, qayg'uli; dabdala bo'lgan] Nosog' holatli; ezg'in, ezilgan, xasta. *Manzura jimgina kulumsirab turaverdi: beozor, beg'araz, ayni damda qandaydir nochor, shikastami.* E. A'zamov. Javob. *Faqat dard tomadi shikasta kuydan.* To'lqin. *Juvon yoqimli va shikasta tovush bilan xirgoyi qilardi.* S. Ahmad. Ufq.

Shikasta xat yoki **xatti shikasta** Harflari nuqtasiz bir-biriga tirkab yoziladigan arabcha xat turi. *Shikasta bu xatdan uning o'qiy olgan jumalari shu bo'ldi.* A. Qahhor. Sarob. [4,586]

Izohda "shikasta" so'zi jismoniy (fizik) va ruhiy zarar ko'rganlik ma'nosini beruvchi "nosog' holatli" birikmasi orqali tushuntirilgan, ammo illyustrativ misollar faqat "ruhiy zarar ko'rmoq" ma'nosini ochishga xizmat qilgan. Bu bugungi kontekstda "shikasta" so'zining asosan, "ruhiy zarar ko'rmoq" ma'nosida qo'llanishini, jismoniy zarar uchun "shikast" so'zi ko'proq qo'llanilishini ko'rsatadi. Shuning uchun manbalarda "shikasta" so'zining "jismoniy zarar ko'rmoq" ma'nosini ifodalash uchun illyustrativ misol topish qiyin. Shuningdek, "shikasta" so'zining ko'chma ma'nosi (shikasta xat) izohidan keyin berilgan illyustrativ misolni tushunish qo'shimcha kontekst talab qiladi. "Shikasta xat" birikmasi "yozmoq, o'qimoq", "tarixiy matn", "eski xat", "xattot" "bitmoq" kabi so'zlar bilan odatiy kontekstda keladi. Shu so'zlardan foydalanib tushunarli va foydali illyustarativ misol tuzish mumkin. Qiyoslaymiz: "shikasta ko'ngil", "shikasta tovush", "shikast topgan (shikasta emas) eshik", "shikast yetgan yaproq". Bundan kelib chiqadiki, o'quv lug'ati uchun "shikasta" so'zining izohlash va illyustrativ misol tanlashda "ruhiy zarar ko'rmoq" ma'nosi tushuntirishi kerak, chunki bugungi til amaliyotida shu ma'nosi faol.

O'quv lug'ati uchun quyidagi semantizatsiyani taklif qilamiz:

SHIKASTA [forsa] Ruhiy ezilgan, g'amgin, iztirob chekkan; qalban jarohatlangan. *Shikasta ko'ngil dardini so'z bilan ifodalash mushkul.*

Shikasta xat yoki **xatti shikasta** Harflari nuqtasiz bir-biriga tirkab yoziladigan arabcha xat turi. *Ko'plab tarixiy manbalar shikasta xatda bitiladi.*

Bunda illyustrativ misol tanlashda aniq manbaga tayanish va til me'yoriga amal qilgan holda lug'atchi tomonidan tuzilgan misollardan foydalanildi. Misolning qaysi turini berish lug'atchining tanlovi, lug'at maqsadi, lug'atda hajm masalasida yuzaga keladigan muammolar bilan bog'liq.

– **eskirgan so'zlar tarixiy kontekst bilan berilishi.** "Nofaol so'zlar o'quv lug'ati" tarixiy, arxaiik birliklarni qamrab oladi va bu o'z navbatida, mazkur so'zlar izohi va ularga illyutrativ misollar berilishi bilan bog'liq muammoni yuzaga keltiradi. Lug'at tarkibida tarixiy, arxaiik so'zlar izohidan maqsad foydalanuvchi uchun eskirgan birlikning ma'nosini tushuntirish, tarxiy matnni tushunishni osonlashtirish, tarixiy atamalarni o'z o'rnida qo'llashga o'rgatishdan iborat. Bu maqsad esa tarixiy so'z ma'nosiga illyustrativ misol tanlashda real manba (tarixiy matn)ga murojaat qilishni talab qiladi. Shunda foydalanuvchi,



soʻzning asl maʼnosi, kelib chiqishi va tarixiy ishlatilish muhiti haqida tushunchaga ega boʻladi. Ammo tarixiy matnga murojaat qilish murakkab va yetarli miqdorda aniq misollar topilmasligi kabi muammolar bilan toʻqnashadi. Bunda lugʻatchi tarixiy matndagi misolni vaziyatga mos holda ixchamlashtirishi mumkin. Ammo asl matndan olingan illyustrativ misol tarixiy matnni oʻqish va tushunishni osonlashtiradi hamda tarixiy atamalarni oʻz oʻrnida toʻgʻri ishlatish madaniyatini shakllantiradi.

– **dialektal soʻzlar hududiy kontekst belan berilishi.** “Nofaol soʻzlar oʻquv lugʻati” tarkibida shevaga xos tabiiy geografik, hududiy konteksti bilan keltirilishi lozim. Bu esa illyustrativ misol tanlashda qiyinchilikni yuzaga chiqaradi.

– **sohaviy terminlarning ilmiy kontekst sifatida ishlatilishi.** Sohaviy terminlar umumiy izohlardan koʻra aniqroq taʼriflanadi. Bu ularga illyustrativ misol tanlashda aniq va ilmiy kontekstga tayanishni taqazo qiladi. Bunday illyustrativ misol tanlash baʼzi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, masalan, ayrim ilmiy terminlar turli fan sohalarida turlicha qoʻllanilishi mumkin: morfologiya soʻzi biologiya va tilshunoslik uchun termin sifatida izohlanadi. Bunday izohlar uchun illyustrativ misol tanlashda lugʻatchi har bir terminning aniq fan sohasini koʻrsatib, maktab darsligidagi ilmiy matn va bolalar uchun nashr etilgan ilmiy-ommabop ensiklopediyalarga asoslanishi kerak.

Demak, nofaol soʻzlar oʻquv lugʻatiga tanlanadigan illyustrativ misollar quyidagi **tamoyillar** asosida tanlanishi kerak:

- 1) tabiiy va meʼyoriy boʻlishi;
- 2) foydalanuvchiga tushunarli boʻlishi;
- 3) soʻzning maʼnosini aniq ochib berishi;
- 4) tarixiy, ilmiy va shevaga oid soʻzlar kontekstga mos misollar bilan berilishi;
- 5) misollar ishonchli manbalardan olinishi (adabiyotlar, ilmiy maqolalar, korpus lingvistikasi, tarixiy hujjatlar va boshqalar).



Oʻquv lugʻatchiligida semantizatsiya masalalari bilan bir qatorda foydalanuvchi talabiga koʻra lugʻat dizayni ham ahamiyat kasb etmoqda. Bunday vaziyat foydalanuvchiga har tomonlama qulay dizayn va texnik talablarga ega lugʻatlar yaratish maqsadini yuzaga keltiradi. Bu esa, oʻz navbatida, lugʻatlarni foydalanuvchi uchun oʻqishga qulay, mazmunan tartibli va texnik jihatdan aniq ishlab chiqilishini talab qiladi. Oʻzbek oʻquv leksikografiyasida lugʻatning dizayni va texnik masalalari alohida tadqiq qilinmagan. Koʻpgina oʻquv lugʻatlarining tuzilishi va dizayn jihatlari **rus hamda xalqaro leksikografiya tajribasiga asoslangan holda shakllantirilgan.** Bu oʻzbek leksikografiyasida mustaqil ilmiy yondashuv sifatida lugʻat dizayni hamda tipografiyasiga oid tadqiqotlarni chuqurlashtirish zaruratini koʻrsatadi.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish mumkinki, illyustrativ misol oʻquv lugʻati maqolasining ajralmas qismi boʻlib, soʻzning maʼnosini aniq va tushunarli qilishga yordam beradi. Nofaol soʻzlar oʻquv lugʻati tarixiy, dialektal va ilmiy atamalarni oʻz ichiga olgani sababli illyustativ misollar, asosan, aniq kontekstdan tanlanishi lozim. Bunda illyustativ misol berishda iqtibos va namuna keltirish kabi usullardan lugʻat maqsadi va foydalanuvchi



ehtiyojidan kelib chiqib tanlanadi. Shuningdek, lug‘at tuzishda axborotni tez va samarali qabul qilish imkonini beradigan shrift tanlovi, rang kodlari, makro- va mikrostrukturaning aniq ajratilishi, grafik elementlar kabi vizual dizayn va texnik talablarga rioya qilish undan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atkins B.T., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford: Oxford University Press, 2008. 553 p 458-459.

2. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., – 252 б.– 60 В.

3.Копецкий Л.В. 1958. «Двуязычный словарь славянских языков. (На материале русскочешского и чешско-3 русского словарей).» – Вopr. яз. 1958, кн. 3, с. 76– 89.

4.Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Tartibot– Shukr /Масъул муҳаррир А. Мадвалиев. – Тошкент: «Ўзбекистон нашриёти», 2020. – 606 б. – 568 Б

